

O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANISHI

Ibragimov Bahrom Baxodirovich

Xorazm viloyati Urganch Davlat Universiteti stajor oqituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sug'urta sohasining yurtimizda rivojlanishi va unga berilayotgan e'tibor hamda uning istiqbollari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Sug'urta kompaniyasi, sug'urta bozori, rivojlanish, iqtisod, ijtimoiy hayot, biznes.*

Bugungi kunda sug'urta kompaniyalari tomonidan nafaqat mamlakatimizdagi, balki xorijiy mijozlarni ham ishonchini qozona oladigan sug'urta xizmatlarining keng turlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, mintaqaviy sug'urta xizmatlarini kengaytirish, sug'urta kompaniyalari moliyaviy resurslarini samarali boshqarish milliy sug'urta bozorini rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biridir.

Bu holat mazkur mavzuning dolzarbligini ifodalaydi. Sug'urta insoniyat tarixining tadrijiy rivojlanishi bosqichlarida moliyaviy munosabatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotga ta'sir etuvchi muhim omil bo'lib kelgan. Zamonaviy davrdagi globallasuv jarayonida sug'urta bozorining innovatsion rivojlanishi jadal o'zgarishlar qamrovida kechayotganligi mazkur institut faoliyatini nazariy-amaliy tadqiq etish dolzarb ekanligini anglatadi. Sug'urta bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy segmenti hisoblanadi, ayni vaqtda, bevosita uning ravnaqiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda qayd etish lozimki, sug'urta faoliyati o'ziga xos tarzda shakllangan va keng qo'llanilayotgan ijtimoiy hodisa bo'lib, barqarorlik omili sanaladi. Mamlakat sug'urta bozori rivojini prognozlash o'z navbatida, biznes sub'ektlari va aholi manfaatlarini himoyasini kafolatli darajada ta'minlash instituti sifatida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqardi.

Bugungi kunda sug'urta sohasi iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi — Sug'urta faoliyati to'g'risidagi Qonuni 3-moddasiga ko'ra, sug'urta — muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararining o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlardir.

Iqtisodiyotni globallasuvi jarayonida sug'urta sohasi korxonalar mol – mulklarining xavfsizligini ta'minlash, moliyaviy holatlarni baholash, moliyaviy risklarni kamaytirish raqobatdosh ustunliklarga ega bo'lishimiz, integrallasuv

jarayonlariga qo'shilishimiz, jahon standartlari talablariga rioya qilishga majbur qilmoqda va bunga muvofiqlashtirilgan talablar ham oshmoqda. Bunday zarururiyat sug'urta jarayoniga avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarni joriy etishni taqazo qilmoqda. O'zbekiston sharoitida sug'urtani rivojlantirishning tez va samarali usuli sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib, vaqt va inson omili bilan bog'liq muammolarni hal eta oladigan, mijoz jismoniy va yuridik shaxslarng faoliyatlari samaradorligini oshirishni ta'minlashga doir talablarga mos keluvchi dasturiy ta'minot yaratish zarur.

Shu o'rinda savol tug 'ilishi tabiiy: nimaga? Nima uchun? Yoki dastur bo'lmasa-da sug'urta tashkilotlari ish yuritmoqdaku! Kabi savollar va fikrlar. Ushbu fikr va savollarga javobimiz quyidagicha: O'zbekistonda deyarli barcha sug'urta kompaniyalari tayyor dasturiy ta'minot mahsulotlarini sotib olish yoki o'z dasturchilari yordamida ishlab chiqish orqali avtomatlashtirish bo'yicha tajribaga ega xolos. Bu o'rinda sug'urta kompaniyalari faoliyati natijalari bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalanib, kelgusi davrlar uchun prognoz qila oladigan —suniy aqldan foydalanib analitik tahlillarni amalga oshirilishi sohani rivojini tezlashtiradi deb hisoblaymiz.

Milliy sug'urta bozorini yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash, sug'urta xizmatlarining talab yuqori bo'lgan yangi turlarini joriy etish, iste'molchilarning sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchini oshirish kunning eng dolzarb masalasi bo'lgan bir paytda hayot sug'urtasining rivojlanishiga bir qancha omillarning salbiy ta'siri mamlakatimizdagi real voqelikni va unga xos xususiyatlarni hamda ilg'or xorij tajribasini hisobga olgan holda hayotni sug'urtalash sohasida innavatsion mexanizmni ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan tegishli ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Natijada esa, hayot sug'urtasining har bir potensial sug'urtalanuvchilarini ushbu faoliyat turiga jalb etuvchanligini yanada oshirish orqali uning uzoq muddatli progressiv rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

Yurtimizda sug'urta bozorini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar muayyan darajada, mamlakat sug'urta bozorini rivojlantirishga xizmat qilayotgan bo'lsada, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan sharoitda sug'urta bozorini rivojlantirish borasida aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish sug'urta munosabatlarini rivojlantirishga va mamlakatda ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ma'lumki, sug'urta bozorining muhim sub'ekti va uning ishtirokchilaridan biri davlat hisoblanadi.

Muhim vazifalarni bajarish uchun avvalo sug'urta sohasida jahon talablariga javob beradigan xodimlarni tayyorlash va ularni amaliyotga tayyorlash, aholini sug'urta to'g'risidagi axborotlardan xabardor qilib borish muhim hisoblanadi. Amalda sug'urta bozorining rivojlanishiga to'siq bo'ladigan

ko'plab sabablar mavjud bo'lib, bunday sabablardan biri monopol holatning yuzaga kelishidir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaning yuzaga kelishiga nisbatan xavfsiz holat sifatida bir tarmoqda faoliyat ko'rsatuvchi kompaniyalar soni kamida o'n va undan ortiq bo'lib, bunda bu bozordagi bir kompaniyaning hissasi sug'urta xizmatlarini sotish bo'yicha 31 foizdan oshmasligi, ikki kompaniyaning hissasi 44 foizdan oshmasligi, uchta kompaniyaning hissasi 54 foizdan oshmasligi va to'rtta kompaniya ulushi 64 foizdan oshmasligi kerak.

O'zbekiston sug'urta xizmatlari bozorining yangi bosqichi 2008 – yil O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Sug'urta nazoratchilari xalqaro assotsiatsiyasiga a'zo bo'lishi va sug'urtalovchilarga qo'yilgan xalqaro standartlarga o'tilishi bilan boshlandi desak xato bo'lmaydi. Amaldagi majburiy sug'urta turlarining qonun hujjatlari bilan mustahkamlanganligi ham ko'rsatish mumkin. Hozirgi kunda sug'urta kompaniyalarimiz tomonidan taqdim etiladigan barcha ommaviy sug'urta turlari shartlari xalqaro sug'urta kompaniyalari kabi barcha shartlarni o'z ichida aks ettiradi.

—O'zagrosug'urta va —O'zbekinvest kompaniyalari hozirgi kunda 100 dan ortiq sug'urta turlari bo'yicha xizmat ko'rsatib kelayotgani va mulkiy qaltisliklari bilan shu qatorda moliyaviy javobgarlik, qishloq xo'jaligi va salomatlikka doir bo'lgan qaltisliklardan sug'urtalash turlari ham kiradi. Sug'urta bozorining rivojiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri-bu aholi o'rtasida sug'urta madaniyatining pastligidir.

Sug'urta xizmatidan foydalanayotgan mijozlar sug'urtalanuvchi sifatida o'z xaq-huquqini bilishi, sug'urta bozori infratuzilmasini takomillashtirilishi, professional ishtirokchilar bo'lgan assistans, syurveyer, adjuster kabi mutaxassislarning malakali xizmatlarining rivoji soha rivoji bilan uzviy bog'liq deb hisoblaymiz. Sug'urta rivojlanishi talab va taklifning darajasiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Sug'urta sohasida sug'urta mukofotlarining katta ulushi majburiy sug'urta shakliga to'g'ri kelmoqda. Bozordagi holati uning darajasi afsuski, majburiy sug'urta turlari zimmasiga to'g'ri kelmoqda.

Ixtiyoriy shaklda sug'urta qildirish darajasi ancha past.

Fikrimizcha, buning asosiy sabablaridan biri sug'urta tashkilotlarining mijozlar bilan yuzma-yuz ishlamayotganligi, har bir mijozning individual talablaridan kelib chiqib sug'urta shartnomasini tuzib chiqilmasligi bo'ymoqda.

Natijada sug'urta mukofoti tushumlari kamayishiga olib kelib, sug'urta xizmatlarining mamlakatimiz YAIM dagi ulushi past ekanligi, bu xizmat turi sifatining talab darajasida emasligini ko'rsatib bermoqda. Sir emaski, aholi orasida sug'urta xizmatlariga nisbatan qiziqish yo'q, ayniqsa ixtiyoriy sug'urta turlaridan juda kam insonlar foydalanadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, sug'urtalash aksariyat mamlakatlar

iqtisodiyotining asosiy sohalaridan biriga, lekin undan ham – aholi va biznesga ta'sir etgan yo'qotishlar va zararlarning qoplashning moddiy manbaiga aylangan. Mamlakatimizda sug'urta bozorining rivojlanishi va insonlarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchining ortishi har ma'noda manfaatli bo'lib, turli xil moliyaviy xatar va tavakkalchiliklarni himoya qilishda chin ma'noda himoya vositasiga aylanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR :

1. “Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori
2. O'RQ- 730- son 23.11.2021. Sug'urta faoliyati to'g'risida- LEX.UZ
3. Sug'urta sohasidagi prezident qarorlari - IMDA 3. SUG'URTADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
4. Хайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009
5. Н.Хайдаров. Солиқлар ва солиққа тортиш масалалари. Ўқув қўлланма. Тошкент: Академия, 2007